FITRAT DRAMATURGIYASIDA DAVR VOQEALARI

Rahmonqulov Musulmon Xayrullo o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbari: ***Gulchexra Imomova***
Qarshi davlat universiteti filologiya fanlari doktori professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Fitrat dramaturgiyasida aks etgan davr voqealari tahlil qilinadi. Muallifning ilk asari – dramatik publitsistikaga moyil “Munozara” va dramalari – “Abulfayzxon”, “Hind ixtilochilari”da o‘z zamonasining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy muhitini qanday aks ettirgani, tarixiy haqiqat va badiiy talqin o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Shuningdek, Fitrat pyesalarida jamiyatning dolzarb muammolari, milliy va ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari hamda dramatik obrazlar vositasida ifodalangan ijtimoiy fikrning rivoji yoritiladi. Uning asarlaridagi obrazlar ijtimoiy ziddiyatlarni, milliy ruh va davr voqealarini aks ettiruvchi chuqur timsollar orqali gavdalantirilgan. Fitratning dramaturgik asarlari o‘z davrida milliy uyg‘onish harakati, jadidchilik g‘oyalari va xalqning ertangi kuniga bo‘lgan umidlarini aks ettirgan. U o‘z asarlari orqali shu davrdagi holatlarni, xalqning qanday ahvolda ekanligini aniq va ravshan tarzda yetkazib bergan. Tadqiqot jarayonida adabiy-badiiy tahlil asosida Fitrat dramaturgiyasining davr ruhi bilan uyg‘unligi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Fitrat dramaturgiyasi, davr voqealari, tarixiy haqiqat, ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy va ma’naviy uyg‘onish, dramatik publitsistika, dramatik obraz, adabiy tahlil, dolzarb muammolar.*

Аннотация. *В данной статье проводится анализ событий эпохи, отражённых в драматургии Фитрата. Рассматриваются его первые произведения – склонная к драматической публицистике пьеса «Мунозара» и драмы «Абулфайзхон», «Индийские революционеры», в которых отражена социально-политическая, культурная и духовная среда его времени, а также взаимосвязь между исторической правдой и художественной интерпретацией. Кроме того, в пьесах Фитрата освещается развитие социальной мысли, выраженной через актуальные проблемы общества, идеи национального и духовного пробуждения и драматические образы. Персонажи его произведений воплощают социальные противоречия, дух нации и события эпохи через глубокие символы. Драматургические произведения Фитрата в своё время отразили национальное пробуждение, идеи джадидизма и надежды народа на лучшее будущее. Посредством своих пьес Фитрат ясно и чётко передавал современникам состояние общества. В процессе исследования на основе литературно-художественного анализа раскрывается гармония драматургии Фитрата с духом времени.*

Ключевые слова: *драматургия Фитрата, события эпохи, историческая правда, социально-политическая среда, культурное и духовное пробуждение, драматическая публицистика, драматический образ, литературный анализ, актуальные проблемы.*

Abstract. *This article analyzes the events of the era reflected in Fitrat's dramaturgy. The author's early works – the drama-oriented publicistic piece "Munozara" and the plays "Abulfayzxon" and "The Indian Revolutionaries" – are examined in terms of how they depict the socio-political, cultural, and spiritual environment of their time, as well as the relationship between historical truth and artistic interpretation. Additionally, Fitrat's plays highlight the development of social thought expressed through the depiction of pressing societal issues, national and spiritual awakening ideas, and dramatic characters. The characters in his works embody social contradictions, the national spirit, and the events of the era through profound symbolism. Fitrat's dramatic works reflected the national awakening movement, Jadidist ideas, and the people's hopes for a better future. Through his plays, Fitrat vividly and clearly conveyed the state of society during his time. The research reveals, based on literary and artistic analysis, the alignment of Fitrat's dramaturgy with the spirit of the era.*

Keywords: *Fitrat's dramaturgy, events of the era, historical truth, socio-political environment, cultural and spiritual awakening, dramatic publicism, dramatic characters, literary analysis, pressing issues.*

Kirish: Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega bo‘lgan. U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan e’tirof etilgan ijodkor edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, u o‘ndan ortiq dramatik asar yozgan. Fitratning dramaturgiyasi o‘z davrining inqilobiy o‘zgarishlari, milliy uyg‘onish g‘oyalari va ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog‘liq. Uning asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Masalan, "Munozara" asari dramatik publitsistika namunasi sifatida jamiyatdagi islohot va taraqqiyot masalalarini muhokama qiladi. Asar ta’qib qilinganiga qaramay, jadidchilik harakatining ustozlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiyning tavsiyasi bilan Hoji Mu’in Shukrulloh o‘g‘li tomonidan turkchaga (o‘zbekcha) tarjima qilinib, 1911-yilda dastlab, "Turkiston viloyatining gazeti"da, so‘ngra esa, alohida kitobcha holida "Turkiston kutubxonasi" ruknida chop qilingan. "Abulfayzxon" tragediyasi esa tarixiy dramalar ichida o‘zgacha o‘rin tutib, mustabid hokimiyatning halokatga yetaklovchi mohiyatini fosh etadi. "Hind ixtilochilari" dramasida esa o‘sha davrdagi ozodlik harakatlari, milliy mustaqillik g‘oyalariga daxldor bo‘lgan asar sifatida baholanadi.

Fitrat o‘z asarlarida nafaqat tarixiy voqealarni aks ettirgan, balki zamonasining ijtimoiy fikrini ham shakllantirishga intilgan. Shuning uchun uning dramaturgiyasi faqat sahna san’ati uchun emas, balki jamiyatning siyosiy-ma’naviy hayotiga ta’sir

etish vositasi ham bo‘lib xizmat qilgan. Fitrat ijodida yaqqol namoyon bo‘ladigan jihat yangilanishga qaratilgan uslub bo‘lib, shu bilan bir qatorda, u jadidchilik harakatining namoyandasi sifatida yuksalish, milliy va ma’naviy uyg‘onishga intilgan. Misol qilib, Turkiyada o‘qib yurgan paytida "Yosh turklar" partiyasidan ilhomlanib, o‘zi ham "Yosh buxoroliklar" partiyasini tuzganini keltirishimiz mumkin. Begali Qosimov aytganidek: "Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyati yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil etadi. U butun umri davomida Ona-Vatanni ozod va obod qilish dardi bilan yashadi".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Fitrat qaysi yo‘nalishdagi ijodidan bo‘lmasin, xoh nazmda, xoh nasrda bo‘lsin, unda mustaqil, erkin va demokratik davlatda yashash hissi mavjud edi. Dramaturg sifatida esa uning yozgan asarlari bizga shu davrdagi jamiyat, siyosat va boshqa holatlarni namoyon qiladi.

Fitrat o‘z dramalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojida buyuk rol o‘ynadi. "Chin sevish" va "Hind ixtilochilari" asarlarida Hindiston xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashlari orqali Turkiston xalqining tuganmas dardlari ifoda qilindi.

Tahlili va metodologiyasi: "Chin sevish" 1920-yilda chop etilgan va Toshkentda Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnaga qo‘yilgan. Cho‘lpon u haqda "o‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak ham go‘zal bir tomosha ko‘rdi", deb yozgan. Fitratning bu asarlari butun musulmon olami, jumladan, Turkiya, Eron, Hindiston va Afg‘onistonga qadar yetib borgan. Taniqli yapon olimi Xisao Kumatsu Fitratning mashhur "Temur sag‘anasi", "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari" kabi asarlariga alohida e’tibor qaratib: "Vatanparvarlik" g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bu asarlarning tomoshasiga kelganlar shu qadar qattiq ta’sirlangan edilarki, ular har safar tomosha so‘ngida teatrlardan ko‘z yoshlarini oqizib chiqib ketardilar"", degan haqiqatni qayd etadi. [8.40]

Fitratning yana bir asari "Hind sayyohi bayonoti"da o‘lka hayotining ko‘plab muammolari, xalqning nochor ahvoli, harbiy nozirlarning intizomsizligi, shahar va uning atrofidagi qishloqlarning ekologik ahvoli, el sog‘ligini saqlash, tabobat va davolash usullari, sanoat va ishlab chiqarishning nochor holati, qozixonalar ishi, qator viloyatlarning milliyroznomaga muhtojligi, yo‘l qurilishi, hatto temir yo‘llar, dehqonchiligu hunarmandchilik hayotning barcha sohalari keskin islohga muhtoj ekanini Hind sayyohi nazari orqali idrok etiladi. Fayzulla Xo‘jayevning "...Mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha tanqidlarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini ochib bergan "Sayyohi hindi" asarining ahamiyatini qayd etmasdan o‘tolmaymiz" [7:98], – maqolasida aytilgan ushbu fikr ayni muddaodir.

"Abulfayzxon" dramasi (yoki "Abulfayzxon" tragediyasi) — 1924-yilda chop etilgan bo‘lib, u o‘zbek adabiyoti tarixida yozilgan ilk tarixiy pyesa hisoblanadi. Fitrat

bu asari orqali tarixiy haqiqatning badiiy talqinini namoyon etib, o‘z davriga ham ishora qilgan.

Muhokama va natijalar: Fitrat dramaturgiyasining shoh asari, shubhasiz, "Abulfayzxon" fojiasidir. Dramaturg Buxoro tarixining bunday keskin burilish nuqtalaridan birini qalamga olishi bilan o‘zining ilmiy va tarixiy asarlarida aks ettirgan hukmron sulolaning hokimiyat tepasiga kelish sabablarini, bunday g‘ayriqonuniy yo‘l bilan hokimiyatni egallagan xonlarning xalqqa o‘tkazayotgan jabr-zulmi shu sabablar zamirida yotganini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ayniqsa, ushbu asar orqali o'sha davr holatlarini insonlarga yetkazib bera oladi. “Dramaning muvaffaqiyatini ta'min etgan narsa muallifning tarix falsafasini anglaganida, davr voqealari va turmush manzaralarini nozik his qilishida, ota-bobolarimizning maishiy hayoti tafsilotlarini yaxshi bilishida, nihoyat, badiiy zehniyatida edi”. [5. 246].

Asarda Buxorodagi Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi vakili Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang‘itlar sulolasining taxtga kelishi aks ettirilgan. Fitrat bu tarixiy hodisani dramatik obrazlar orqali jonlantirib, zo‘ravonlik asosida qurilgan tuzumning barbod bo‘lishini ko‘rsatgan. "Abulfayzxon" tragediyasi badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan bo‘lib, o‘zbek dramaturgiyasida "Shekspirona" ruhdagi ilk tarixiy tragediya sifatida e’tirof etiladi. Asarni mudhish bir ta’kid, ya’ni asarda Ulfat obrazi tilidan aytilgan «Podshohlik – qon bilan sug‘orilaturg‘on bir og‘ochdir» asosiga qurilgan desak ham bo‘ladi. Chunki toj-u taxt orzusi ko‘zlarni ko‘r, qalblarni nochor qilishi mumkin. Bunga asardagi bir qancha voqealar ham dalil bo‘la oladi. Xususan, tarixiy dalillarga ko‘ra, Abulfayzxon taxtga o‘tirish uchun akasining bahridan o‘tgan edi. Xon yon-atrofidagi ikkiyuzlamachi xoinlar dastidan, qolaversa, o‘zining nihoyatda kaltabinligi tufayli mag‘lubiyatga uchraydi. Asarning bosh g‘oyasi ham zulm asosiga qurilgan tuzumning oxir-oqibat inqirozga yuz tutishini ta’kidlashga yo‘naltirilgan. Kunlar o‘tgan sayin Abulfayzxonni marhumlar ruhi bezovta qila boshlaydi: qo‘rqinchli tushlar ko‘radi. Xon atrofi borgan sari sotqinlarga to‘lib boradi. Zero, bunga faqatgina uning o‘zi aybdor edi. Hatto eng ishonchli odamlaridan biri Hakimbiy Eron shohi Nodirshoh bilan do‘stlashadi. O‘g‘lini yashirin ravishda Nodirshoh huzuriga yuboradi. Hakimbiy bir tarafdan urushmaslik tarafdori bo‘lib ko‘rinsa ham, o‘z yurtini dushman qo‘liga topshirishi, dushman bilan yashirincha til biriktirishi, oxir-oqibat Eron shohining Buxoroni egallab olishi – bularning barchasi millatparvarlik, vatanparvarlik nuqtayi nazaridan oqlab ham, yoqlab ham bo‘ladigan hodisalar emas.

Asarda zamon ahvolidan oshkora norozi, yurt tinchligi uchun kuyingan kishilar Ibrohimbiy obrazi orqali tasvirlanadi. Ibrohimbiy haqiqat tarafida, u xalq manfaatini ko‘zlaydigan odam. Shuning uchun elga yomonlik qilgan, hukumat ishlariga qaramagan, «kecha-kunduz chog‘ir ichib» yotgan Abulfayzxon siyosatini ham, ish boshiga kelgan Rahimbiyni ham qo‘llab-quvvatlamaydi. Fitrat o‘zi anglab yetgan va anglatmoqchi bo‘lgan haqiqat bayoni uchun asar oxirida Siyovush timsolidagi Xayol

obrazini yaratib Xayolni: «Sen fazilatli bilimlarning qo‘l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg‘uchi adiblarning qalamlarini o‘choq supurgisiga aylantirding. Ota pichog‘i bilan bolalarni bo‘g‘izlading. Bola pichog‘i bilan otalarni yiqitding...», deya so‘zlatadi. Xayol asardagi eng kuchli va eng teran obrazlardan biri. Fojiadagi obrazlarning o‘zaro ziddiyatlarini, tarixiy haqiqat kim tomonida ekanini tushunish uchun asarni sinchiklab o‘qish va ayni damda o‘sha davr tarixini ham yaxshi bilish kerak bo‘ladi. Fitrat «Abulfayzxon» fojiasi uchun Buxoro tarixidagi o‘ta ziddiyatli bir zamonni tanladi. Zero, shu davrda yosh avlod uchun ta’lim olish juda muhim edi va bu ta’limlarni o‘rganish uchun bizga yetarlicha buyuklarimiz tomonidan ilmiy meroslar yetib kelgan.

XVIII asrda Buxoroda hukm surgan ashtarxoniylar sulolasi tugab, ular o‘rniga mang‘it amirlarining kelish hodisalarini qalamga oldi. Fitrat real tarixiy shaxslar bilan birga to‘qima hamda ramziy obrazlardan unumli foydalanadi. Fitrat ijodining ta’siri keyinchalik Shayxzodaning "Mirzo Ulug‘bek", Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi asarlarida ham davom etgan.

Avvalambor, Abulfayzxonning o‘zi Buxoro taxtini razil yo‘llar bilan egallagan. Maqsadiga erishish uchun akasi Ubaydullaxonning joniga qasd qilgan. «Al qasos-ul minal haq» deganlaridek, o‘zi ham saroy fisq-u fujurlarining qurboni bo‘ladi: raqiblari tomonidan xoinlarcha o‘ldiriladi. Dramaturg saltanat tanazzuli sababini Abulfayzxon tabiatini tahlil etish orqali ko‘rsatadi. Xon butun mamlakatni, barcha amaldorlarni qo‘rquv, titroq, dahshat ostida tutib turdi. Chaqim-chilik, tuhmat, fisq-u fujur, odamlarni gijgijlashni yurtni boshqarish tuzumida yetakchi qoidalar deb bildi. Mamlakatda o‘zaro ishonchsizlik, hadik avjiga chiqdi. Natijada, johillik zamiriga qurilgan, zo‘ravonlik siyosatiga yukingan saltanat uning egasi yanglig‘ inqirozga yuz tutdi. «Abulfayzxon» XVIII asr Buxoro hayotidan olib yozilgan, tarixiy haqiqat asosiga qurilgan birinchi tarixiy tragediyadir. Unda ilk bor o‘zbek dramaturgiyasida shekspirona teran tragik obrazlar yaratildi. U shu janrda jahon miqyosida tan olingan shoh asarlar qatoridan munosib o‘rin ola biladi. Uning ahamiyati o‘zbek xalqi tarixidagi muhim hodisa va tarixiy shaxslar qismati haqqoniy aks ettirilishidagina emas. Zo‘ravonlik va shafqatsizlik mohiyati, zulm va istibdod asosiga qurilgan hokimiyatning barbod bo‘lishi, ezgulikning zavoli, uvoli va kamolidagi mangu muammolarning go‘zal badiiy talqinida namoyon bo‘luvchi fazilatlar bu asarni zamon va makonga bo‘ysunmas ravishda e’tiborli va qimmatli qiladi. Yuksak mahorat bilan yozilgan drama muallifning san’atkor, millatparvar, vatanparvar sifatidagi siymosini uyg‘unlashtiradi.

Xulosa:

Abdurauf Fitrat ijodi o‘zbek dramaturgiyasi va umuman, milliy adabiyotimiz taraqqiyotida beqiyos o‘rin tutadi. Uning asarlari nafaqat sahna uchun yozilgan dramatik hikoyalar, balki ijtimoiy hayotning muhim masalalarini ko‘tarib chiqqan, millat taqdiriga daxldor badiiy hujjatlar hamdir. Fitrat dramaturgiyasining asosiy

mohiyati – milliy uyg‘onish, erkinlik, mustaqillik va adolat g‘oyalari bilan sug‘orilganligidir. Uning “Munozara”, “Abulfayzxon”, “Hind ixtilochilari” kabi asarlari jamiyatdagi tub burilishlar, tarixiy o‘zgarishlar va siyosiy jarayonlarni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Fitrat tarixiy haqiqat va badiiy talqinni mahorat bilan uyg‘unlashtirib, o‘z davrining dolzarb muammolariga o‘zining dramaturgik nigohi bilan yondashgan. Ayniqsa, "Abulfayzxon" tragediyasi mustabid tuzumning halokatga olib boruvchi mohiyatini fosh etib, tarixiy fojialar zamiridagi og‘riqli haqiqatlarni badiiy ifodalagan. Asarni o‘qish orqali biz shu davrda bo‘lib o‘tgan siyosiy holatlar va xalqning ahvolini anglab olishimiz mumkin bo‘ladi. Bu esa bizning hozirgi davrda shunday imkoniyatlarda va tinchlikda yashayotganligimizga shukr qilish kerakligiga bevosita undaydi.

Fitratning asarlari nafaqat milliy adabiyotimiz, balki sahna san’ati, tarixiy adabiyot hamda publitsistikaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. U yaratgan dramatik obrazlar – nafaqat sahnaviy qahramonlar, balki millat taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy tiplar hamdir. Ularning har biri o‘z zamonasining ruhini, xalqning orzu-intilishlarini, kurashlarini ifodalaydi. Shu bois Fitrat dramaturgiyasini o‘rganish nafaqat adabiy jarayon, balki milliy ong va ma’naviy merosni anglash nuqtayi nazaridan ham nihoyatda muhimdir. Uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zero, tarixiy saboqlardan xulosa chiqarish, millat ravnaqi yo‘lida adabiyotning qudratini anglash har bir avlodning mas’uliyatidir. Shunday qilib, Fitrat dramaturgiyasi o‘zbek adabiyoti va sahna san’atining bebaho xazinasi bo‘lib, undagi badiiy yondashuv, ijtimoiy haqiqat va tarixiy ruh uyg‘unligi bizga milliy va ma’naviy merosimizni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu asarlar har bir davr uchun dolzarb bo‘lib, ularning g‘oyalari yangi avlodlarni ham tafakkur va harakatga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Fitrat hujjatli filmi. Ssenariy muallifi: Begali Qosimov.
2. "Abulfayzxon" mavzusida tuzilgan manbaa. Muallif: Abdukarimova M.M.
3. Maxmudxo'ja Behbudiy. "Munozara" haqida. Turkiston viloyati gazetasi, 1911 yil, 29 sentyabr, 73-son.
4. Obidjon Karimov. "Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi". Namangan nashriyoti, 2016, 24-bet.
5. Qosimov B. "Milliy uyg‘onish". Ma'naviyat, Toshkent, 2002. B 246 - 296
6. Abdurauf Fitrat. "Chin sevish".
7. Xo'jayev F. Buxoroda inqilob va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir. / Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-tom. T.: Fan, 1978. B. 98-99.
8. "Xisao Kumatsu. 20-Yuzyil baslarinde Orta Asyada Turkcilik va Devrim hereketleri. Anqara, 1993. B. 40.